

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT DAVLAT ARXITEKTURA QURILISH INSTITUTI

«Arxitektura» fakulteti

«Landshaft dizayni va interyer» kafedrası

Bitiruv malakaviy ishi(loyihasi)ning

TUSHUNTIRISH XATI

***Mavzu: Tayloq tumani kam qavatli turar joy binosining
interyerlari dizayn yechimi***

Diplomant: 402-D. Nasimova M

Rahbar: Meliyev X.M

«Landshaft dizayni va interyer»

kafedrası mudiri: Jonuzakov A.E

Samarqand-2019

MUNDARIJA

1. Kirish
2. Arxitekturaviy rejalashtirish qismi
3. Badiiy qismi
4. Hayotiy faoliyat xavfsizligi qismi
5. Ekologiya qismi
6. Xulosa
7. Adabiyotlar ro‘yxati

KIRISH

TUMAN TARIXI

Toyloq tumanining o‘tmishi va buguni

Toyloq tumani Zarafshon daryosi qirg‘og‘i bilan tutash bo‘lib, uning janubida joylashgan. Voha shimoldan Zarafshon daryosi va janubdan Darg‘om kanali bilan o‘ralganligi uchun “Kichik Movarounnahr” nomini ham olgan. O‘rta asrlarda tuman SHovdor deb atalgan.

Tuman keyingi asrlarda YUqori Darg‘om, 20-asrning o‘rtalarigacha Komsomol nomlari bilan yuritilgan. 1959 yilda Komsomol tumani Samarqand tumaniga qo‘shib yuborilgan.

Vatanimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng, aniqrog‘i 1992 yil 9 aprelda tuman qaytadan tashkil etilib, Toyloq nomi bilan yuritib kelinmoqda. Tuman shimolida Jomboy va Bulung‘ur, sharq tomonida hamda janubida Urgut, g‘arb tarafida esa Samarqand tumanlari joylashgan.

Toyloq hududi jihatidan Samarqand viloyatidagi eng kichik tumanlardan biri bo‘lsa-da (er maydoni 0.28 ming kvadrat kilometr), aholi soni bo‘yicha oldingi o‘rinlardan birida turadi. Ayni paytda tumanda 28 millatga mansub 189 mingdan ko‘proq aholi istiqomat qiladi. O‘zbeklar bilan bir qatorda tojik, rus, koreys, tatar, turk va boshqa millatga mansub aholi ahil-inoq, bir maqsad yo‘lida farovon yashamoqdalar.

Toyloq tumanida 50 ta mahalla fuqarolar yig‘inlari, 100 dan ortiq qishloqlar mavjud. Tumanda 58 ta umumta’lim maktablari, 40 ta maktabgacha ta’lim muassasalari, 7 ta kasb –hunar kollejlari, 29-sonli Bolalar musiqa va san’at maktab, Bolalar-o‘smirlar sport maktabi faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

Tumanda bugungi kunda 1 ta tuman markaziy shifoxonasi, 2 ta qishloq oilaviy poliklinikasi, 6 ta qishloq vrachlik punktlari, 1 ta ko‘p tarmoqli markaziy poliklinika tuman aholisi uchun tibbiy xizmat ko‘rsatib kelmoqda.

Toyloq zaminida ulug‘ muhaddis Abdurahmon ad-Doramiy, buyuk ma’rifatparvar Mahmudxo‘ja Behbudiy yashab o‘tganlar.

Turizm sohasi. Tumanda ichki va tashqi turizmni rivojlantirish turistlar oqimini ko'paytirish maqsadida, Bog'izagon MCHJ, "Agromir adas" qo'shma korxonalarida vino degustatsiya zallari, "Siyob saxovati" qo'shma korxonalari hududida konserva mahsulotlari ko'rgazmasi, "Siyob SHavkat Orzu" fermer xujaligida agroturizm majmuasini, hunarmandchilik na'munalari, rassomchilik va amaliy san'at asarlari ko'rgazmasi tashkil etilgan.


SHuningdek jami 26 o'rinli qulay shart-sharoitlarga ega 3 ta uy mehmonxonasi tashkil etilgan bo'lib, ushbu uy mehmonxonalari tuman markazida joylashgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "2017-2019 yillarda Samarqand shahri va Samarqand viloyatining turizm salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan tumanda turistlar oqimini ko'paytirish , hududda zamonaviy turizm infratuzilmasini izchil rivojlanishini ta'minlash, zamonaviy talablarga muvofiq ko'rsatiladigan turizm, mehmonxona va transport xizmatlari turlarini kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilgan.

Jumladan, 4 loyiha jami 13 mlrd 350 mln.so'm shundan 5 mlrd.150 mln. so'm tashabbuskorlarning o'z mablag'i 50 mlrd.so'm tijorat bank kredit mablag'lari hamda 400 ming AQSH dollar miqdorida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish natijasida Mehmonxona Turizm va dam olish maskanlarini tashkil etish rejalashtirilgan. SHuningdek 41 ta xizmat ko'rsatish infratuzilmasi kurish, qulay geografik joylashuvi, e'tiborga olib, yangi turizm yo'nalishlari tashkil etish, 1 ta ilmiy 2 ta sport-rekreatsioon zona, 3 ta gastronomik turizm ob'ektlari, 7 ta ekoturizm va agroturizm ob'ekti, 2 ta tibbiyot turizmga oid loyiha, hamda 11 ta ziyorat turizmi sohasidagi loyihalar amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

ARXITEKTURAVIY REJALASHTIRISH QISMI

Bitiruv malakaviy ishi (loyihasi) mavzusi ***Samarqand viloyati Tayloq tumani kam qavatli turar joy binosining interyer loyihasi*** bo‘lib, jamoat binolarining xajmiy-rejalashtirish echimlari amaldagi me‘yorlar (SHNK 2.08.02 va boshqalar) talablariga muvofiq amalga oshirilgan.



Kurilish. 2018 yilda “Obod qishloq” dasturiga tuman prokurori (F.Abduxalikov) sektorida joylashgan “Nurli yo‘l” MFY Baxshitepa qishlog‘i va tuman IIB boshlig‘i (M.Shermuxeamedov) sektori hududida joylashgan “SHopulot” MFY SHopulot qishlog‘i tanlab olindi

Tuman xokimining qarori bilan “Nurli yo‘l” MFY Baxshitepa qishlog‘ida sektor rahbari tuman prokurori boshchiligida 27 kishidan iborat, “SHopulot” MFY SHopulot qishlog‘ida sektor rahbari tuman IIB boshlig‘i boshchiligida 26 kishidan iborat doimiy ishlovchi ishchi guruh va shtab tashkil qilindi.

Dastlabki hisob-kitoblar asosida qishloqlarda olib boriladigan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi. Unga ko‘ra qishloqlarda mavjud 908 ta (Baxshitepa qishlog‘ida 608 ta, SHopulot qishlog‘ida 300 ta) xonadonlarda yashovchi 6064 nafar (Baxshitepada 3595 nafar, SHopulotda 2469 nafar) aholi turmush darajasini yaxshilash uchun:

-703 ta (Baxshitepa qishlog‘ida 434 ta, SHopulot qishlog‘ida 269 ta) uy-joylarda 3 mlrd 860 mln so‘m (Baxshitepa qishlog‘ida 2 378 mln so‘m, SHopulot qishlog‘ida 1 482mln so‘m)ga uy-joylarni ta‘mirlash va obodonlashtirish ishlarini olib borildi;

-2 ta ichimlik suvi inshooti va 5,8 km tarmoq 830 mln soʻmga (Baxshitepa qishlogʻida 412 mln.soʻmga 1 ta skv va 3,1 km tarmoq, SHopulot qishlogʻida 418 mln.soʻmga 1 ta skv va 2,7 km tarmoq) tortish ishlari bajarildi;

-2 ta yangi TP va 5,5 km elektr tarmoq 243 mln soʻmga (Baxshitepa qishlogʻida 185,2 mln soʻmga 1ta yangi TP va 4,1 km tarmoq, SHopulot qishlogʻida 57,3 mln soʻmga 1 ta yangi TP va 1,4 km tarmoq)larini taʼmirlandi:

-8,3 km ichki xoʻjaliklararo yoʻllarni taʼmirlash 1 mlrd 958 mln soʻmga (Baxshitepa qishlogʻida 1002,0 mln soʻmga 5,5 km, SHopulot qishlogʻida 956 mln soʻmga 2,8 km) ichki yoʻllarni taʼmirlandi:

-300 ta suyultirilgan gaz ballonlari 91,6 mln soʻmlik (Baxshitepa qishlogʻida 48,5 mln soʻmga 150 dona, SHopulot qishlogʻida 48,5 mln soʻmga 150 dona) bilan taʼminlandi;

-335 ta xonadonda 838 mln soʻmga (Baxshitepa qishlogʻida 308 mln soʻmga 123 ta, SHopulot qishlogʻida 530 mln soʻmga 212 ta) tozalov inshootlari va oqava suv handaklari (xojatxonalar)ni tozalandi;

-6 ta ijtimoiy infratuzilma obʼektlarini qurish(taʼmirlash) 5 mlrd 103 mln soʻm (Baxshitepa qishlogʻidagi 15-umumtaʼlim maktabi va 25 maktabgacha taʼlim muassasasi, Baxshitepa QVP) hamda 1 mlrd 459 mln soʻm (SHopulot qishlogʻidagi 26-umumtaʼlim maktabi, 30 maktabgacha taʼlim muassasasi, Adas QVP) taʼmirlash ishlari tugatildi.

-13 ta bozor infratuzilmalari obʼektlarini qurish (taʼmirlash) ishlari (Baxshitepa qishlogʻida 6 ta, SHopulot qishlogʻida 7 ta) bajarildi.

2019 yil “Obod qishloq” dasturiga 3 ta yaʼni

-Navbaxor MFY Naqqashon qishlogʻi;

-Olmazor MFY Olmazor qishlogʻi;

-Xoʻjaqishloq MFY Jumabozor qishlogʻini kiritish boʻyicha taklif kiritilgan.

TOYLOQ TUMAN ZIYORATGOHLARI

Ad-Doramiy ziyoratgoxi



Bandi kushod ziyoratgoxi





Talli ota ziyoratgohi



Toyloq ota ziyoratgohi



Demak, diplom ish mavzusi turar joy binosi intererlarining dizayn echimi haqida gap ketganda, asosiy xona, bolalar xonasi, mexmonxona, oshxona va yotoqxonalarining dizayn uslublari va echimlariga to'xtalib o'tamiz.



2018 yilning o'zida jami 1 ming 344 xonadondan iborat 32 ta 7 qavatli ko'p qavatli arzon uy barpo etildi. Bundan tashqari, Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Milliy gvardiya xizmatchilari va yosh oilalarga mo'ljallangan 5 qavatli 12 ta turar joy qurib, foydalanishga topshirildi. SHu bilan birga, hududda xususiy bog'cha, shahar ichki ishlar bo'limi, savdo va maishiy xizmat majmuasi, "Registon" supermarketi qurib bitkazildi. 540 o'rinli umumta'lim maktabi qurilishi yakunlanmoqda.

Aholi joylashuvi - ma'lum bir hududda shaharlar joylarining joylashuvi. Bosh reja — obyekt rejasining asosiy chizmasi bo'lib, loyihachining fikrlarini ifodalaydi va ishchi loyiha uchun asos hisoblaniladi. Geologik tuzilishi - hududning neotektonik faolligi va seysmikasi, stratigralik va litologik komplekslarning borligi, ularning tuzilishi, yoyilish qonuniyatlari va quvvati nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tahlil uchun tektonik, geomorfologik, geologik va boshqa geologiya fondidagi materiallardan foydalaniladi. Ko'kalamzorlashtirish - landshaftni qayta tiklash, qishloq joylarida, sanoat muassasalari atrofida o'rmon himoya chiziqlarini yaratish, ko'cha va magistrallar bo'ylab, turar-joy va kichik tuman chegaralarida, bog' va parklarda ekinlar ekish bo'yicha muhandislik va agrotexnik tadbirlar yig'indisi. Sanoat hududi - sanoat korxonalari, ularning transport va ombor xo'jaliklari, yordamchi inshootlar va muassasalar bilan band bo'lgan hudud. Tumanni rejalashtirish - iqtisodiy yoki ma'muriy tumanni kompleks hududiy-xo'jalik tuzilishini loyihalash va uning xalq xo'jaligi tarmoqlarini, shaharlar va qishloqlarni optimal joylashuvini hamda aholi mehnati va dam olish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berishni

ta'minlovchi tarxiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Binolarning asosiy va ajralmas qismi bu devorlardir. Ular avvalambor arxitekturaviy hajmni chegaraga oladi, ya'ni ichkarini tashqaridan va yana mayda, yordamchi xonachalarga ajratadi, ichkarini tashqaridagi har xil tabiiy ta'sirlardan (sovuq, issiq, qor, yomg'ir) asraydi va yana eng kerakligi binoning shift va tomini ko'tarib turuvchi yoki yuk ko'taruvchi vazifasini bajaradi.

Konstruktiv funksiyasiga qarab devorlar asosan uch xil bo'ladi:

- 1) yuk ko'taruvchi va yana o'rab turuvchi yoki tashqi devorlar;
- 2) o'zini-o'zi ushlab turuvchi, ko'taruvchi devorlar, ular asosan sinchlar orasini to'ldiradi, ayrim hollarda sinchlarsiz ham turadi;
- 3) o'rab turuvchi devorlar.

1. Yuk ko'taruvchi devorlar asosan toshdan, g'ishtdan, kichik va katta beton bo'laklaridan, paxsadan, guvaladan, xom g'ishtdan, yumaloq yog'ochlardan, to'rt burchak yog'ochlardan va boshqalardan qurilishi mumkin.

Order tizimiga asoslangan mumtoz arxitekturada toshdan terilgan devorlarning kompozitsion yechimlari yaxshi topilgan.

Yuk ko'taruvchi va o'rab turuvchi devorlarni uch bo'lakka bo'lamiz:

- sokol (etak qismi);
- o'rta qism (devorning asosiy va katta qismi);
- devorning yuqori qismi – antablement. Ustunlarning pyedestal va baza qismlari, devorning sokol qismi ham imoratning asosi deb hisoblangan. Ko'p qavatli binolarda asosiy devorlar yuzida ko'pincha oraliq karnizlar ham ishlatilgan, yoki bezak sifatida foydalanilgan.

Undan tashqari devorlarni qaysi qurilish ashyosidan qurilganligini bildirish va shu bilan bir qatorda uni bezatish uchun, masalan toshdan yoki g'ishtdan qurilgan bo'lsa, uning baquvvatligini va bezak sifatini ko'rsatish maqsadida ularni chiroyli terib, oralarini alohida tekislab ko'rsatganlar. Hozirda esa devor ustini ishlash uchun juda ko'p materiallar ishlatilmoqda.

Masalan: sement qorishmasi, alebastr qorishmasi yoki murakkab qorishmalardan tashqari marmar uvog'i qorishmasi – «mineralka» va yana ko'pgina boshqa materiallardan

foydalanilmoqda.

1) sokol;

2) o‘zini-o‘zi ko‘tarib turuvchi devorlar asosan beton, temir va boshqa turdagi karkaslarga osilgan holda yoki ularning orasini g‘isht, har xil bloklar bilan to‘ldirilgan ko‘rinishda (holda) bo‘ladi;

3) o‘rab turuvchi yoki to‘siq rolini bajaruvchi devorlardan asosan tashqi devorlarning yuk ko‘tarmaydigan taraflari uchun va ko‘pincha xonalarni bir-biridan ajratib turish uchun yoki bo‘lmasa kichik-kichik xonalarni qurish uchun: masalan, vannaxonalar, hojatxonalarining devorlarini, oshxona bilan ovqatlanadigan xonalarni ajratib turuvchi devorlarni shular jumlasiga kiritisa bo‘ladi.

Orayopma va tomlar

Orayopmalar.

Binolarning eng kerakli qism (element)laridan yana biri bu orayopma (shift)lardir.

Hammaga ma’lumki, bino qurilishi boshlanibdiki uning ustini yopish muammosi bo‘lgan va bu muammoni albatta o‘sha vaqtning shart-sharoitidan kelib chiqqan holda hal qilib kelingan. Tarixda binolarning shiftlari va tomlari asosan tabiiy ashyolardan tosh (rim-grek), yog‘och, qamish va loy (osiyo); palma yog‘ochlari, barglari (yaqin osiyo) va boshqalar bilan yopilgan. Vaqt o‘tgan sari, ya’ni XVII–XVIII asrlardan boshlab qurilayotgan binolar murakkablashib, uning qavatlarini ko‘payib ketganligi munosabati bilan orayopma va tomlarning ashyolari ham o‘zgardi. Hozirda esa asosan temir va temir-beton ashyolar ishlatilmoqda.

Hozirgi vaqtda qavatlararo va boshqa turdagi orayopmalarga ham asosan temir-beton plitalaridan foydalanilmoqda.

Tomlar

Tom binoning eng ustki qismi bo‘lib u binoni ham ichki ham tashqi qismlarini atmosferaning har xil ta’sirlaridan, ya’ni qor, yomg‘ir, do‘l va sovuqlardan saqlab turishga sabab bo‘luvchi qismi hisoblanadi.

Tomlar qayerda bo‘lishiga va iqlim sharoitiga qarab har xil holatda quriladi. Masalan, issiq mamlakatlarda yomg‘ir, qor kam yoqqanligi tufayli tarixda tomlar tekis yoki juda kam bilinar-bilinmas qiya holda qurilgan.

Shu paytgacha eng ko‘p tarqalgan orayopmalardan biri bu oralari bir xil qilib joylashtirilgan to‘sinlar, ular ustiga tashlangan taxtalar va ular ustidan to‘shalgan loy yoki bo‘lmasa har xil qorishmalardir. To‘sinlar ostiga esa har xil shiftlar masalan: fanera, orgolit, gipsokarton, plastik va boshqa shunga o‘xshash materiallardan foydalaniladi. Bunday shiftlar o‘rta asrlardan to shu kunlargacha va bugunda ham xalq arxitekturasida ishlatilib kelinmoqda.

BADIY QISM



“Samarqand viloyati Tayloq tumani kam qavatli turar joy binosining interyer loyihasi”ning badiiy-me’moriy yechimini topishda eng avval xonalarni funksional zonalarga ajratishga qaratilib, unga e’tibor berilgan. Devorlarning ranglari, bo‘yoqlar kombinatsiyasi, yorug‘likning bezak materiallari bilan muvofiqligi badiiy kompozitsiya shaklining uyg‘unligiga olib kelgan. Bino qismlari va ayrim o‘ziga xos bezalgan joylar zamonaviy dizaynga mos keladi.

Bolalar xonasi dizaynini yaratish – murakkab jarayon, chunki hisobga olinishi zarur bo‘lgan bir qancha nuanslarga ega. YOdda tutish kerak: aynan bolalar xonasi uchun dizayn yaratilmoqda. YAxshisi, bezatish variantini bolaning o‘zi bilan birga tanlang. Axir bu uning xonasi bo‘ladi! Bolalar xonasining dizaynini bir qator jihatlarni hisobga olgan holda yaratish kerak:

Pardozlashda ishlatiladigan materiallar va interer ashyolari xavfsiz (notoksik) bo‘lishi kerak.

Oyna kabi oson sinadigan ashyolardan foydalanishdan voz keching. Kichkinagina to‘fon g‘ayratiga ega bola bunday ashyoni sindiribgina qolmay, uning siniqlaridan o‘ziga ham jarohat etkazishi mumkin.

Xona maydoni maksimal darajada ish berishi uchun, uni zonalarga to‘g‘ri taqsimlash kerak. Odatda

*bolalar xonasi quyidagi hududlarga bo‘linadi: yotoq, ta’lim va o‘yin hududlari.
Sport burchagi uchun ham joy qoldirish tavsiya etiladi.*



Xonani hududlarga bo‘lishda quyidagi usullardan foydalaning:

- *parda yoki pardevor o‘rnatish;*
- *yorug‘lik tushishining o‘zgarishi;*
- *mebellarni maqsadlariga ko‘ra to‘g‘ri joylashuvi*
- *bir yoki bir nechta hududni biroz balandga joylashtirish. Masalan, o‘quv hududini deraza oldidagi balandroq joyga mo‘ljallagan ma’qul.*

Pardozlash materiallarini tanlashda yuviladigan, kirlanishga, mexanik ta’sirga va eskirishga chidamli materiallarga afzallik beriladi.

Xonaning qanday rangda bo‘lishi bolaning temperamentiga qarab tanlanadi. Qiziqqon xarakterdagi bola yorqin, boy rangli xonada o‘zini qulay his qiladi. Og‘ir-bosiq bolaga esa, iliq, vazmin ranglar mos keladi.



Uslubiy echimlar va ranglar to'g'risida

Bolaga mavzuiy xarakterdagi ommabop uslublarni taklif qilish mumkin. Qiz bolaga ertakdagi malika qasri uslubida bezatilgan xona ko'proq yoqadi. O'g'il bolalar esa, xonaning qaroqchilar kemasidek bezatilganini xush ko'rishlari tayin.





Keyingi qadam – ranglar va ularning uygʻunligi...

Ruhyatshunoslar taʼkidlaydilar: kattalarga qaraganda, bolalar oʻtkirroq rang his qilish qobiliyatiga egalar. SHu sababli, 1–2 yoshli bola xonasini vazmin ranglarda bezash kerak.

Katta yoshdagi bola uchun toʻq koʻk–sariq ranglar uygʻunligi mos keladi, u qulaylik va psixologik himoyalanganlik muhitini yaratadi. SHunday rangdagi mebel xonani yanada quvnoqroq qiladi. Darvoqe, taxminan 4 yoshlardan keyin, bola kontrast va yorqin ranglarni ijobiy qabul qila boshlaydi. Bunday ranglarga, yuqoridagilardan tashqari, yashil, olovrang, qizil va boshqalar kiradi. Faqat esda tuting – qizilni haddan oshirib yubormaslik kerak.



«Uygʻunlikdagi tartibsizlik» hukmron boʻlgan viktorian uslubidagi intererni koʻpchilik «Baron» uslubidagi intererga qarshi qoʻyadi. Chunki ushbu intererda ham zarhal naqshinli toʻq rangdagi gulqogʻozlardan, tegralari naqshindor metallardan ishlangan va turli ulama qoplamalar qoplangan mebellardan hamda rangli oynavand eshiklardan foydalaniladi.

Bidermayer uslubidagi interer oddiyligi va shinamligi bilan boshqa interer uslublaridan ajralib turadi. YONGʻOQ daraxtidan tayyorlangan pastak mebellar, parket yoki oddiy laklangan pol, gulqogʻoz yopishtirilgan yoki mayda va yassi gulli gulqogʻoz yoki matolar qoplangan devor aynan bidermayer uslubiga xos.

Zamonaviy interer uslublari orasida *minimalizm*, *kantri*, *ingliz* va *yapon uslublari* alohida ajralib turadi. SHular orasidan «ozgina-sozgina» tushunchasiga amal qiluvchi minimalizm uslubi eng ommalashgan uslub sanaladi. Bu intererni yaratishda yogʻoch, teri, toshlar, linoleum, plastika va xromlangan poʻlat materiallardan, qora, ok, qaymoq rang, kul rang va nafarmon kabi yorqin boʻlmagan ranglardan keng foydalaniladi. Derazalarga oddiy parda yoki jalyuzalar tutiladi. Bezaklardan esa

deyarli foydalanilmaydi. Mebellar oz sonli bo'ladi va xonaga erkin uslubda joylashtiriladi.

Intererda rang – Ranglar shunday ta'sir kuchiga egaki, ular insonning miya faoliyatiga, kayfiyatiga va ruhiyatiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir eta oladi. Masalan, moviy, yashil ranglar «shifobaxsh» rang sifatida e'tirof etiladi. Olimlar tomonidan yashil rangning yurak va kon aylanish jarayoniga ta'sir qilishi isbotlab berilgan. Biz odatda uyimizda, ish joyimizda turli tabiiy gullarni o'stiramiz yoki atrofni sun'iy gullar bilan bezatishga harakat qilamiz. Nega, degan savol tug'ilishi turgan gap. Bu shuning uchunki gullarga, yashil rangga bo'lgan ehtiyoj bizning ong ostimizda paydo bo'ladi va biz yashil dunyoning bir bo'lagini shuurimizga olib kirib undan bahra olamiz. Bu esa bizning yuragimizning xotirjam va baquvvat bo'lishiga yordam beradi. YAshil — tabiat yashil rang tinchlantiruvchi rang sifatida qo'llaniladi. SHuningdek u farovonlik ramzi hamdir. YAshil rang tinchlik, soddalik va uyg'unlik ramzi sifatida ham e'tirof etiladi, Bu rang dam olish va sog'lomlashtirish maskanlaridagi, shovqinli tumanlardagi binolarni bo'yashda keng qo'llaniladi.

Katta va yaxshi yoritilmaydigan xonalarni bo'yashda to'q yashil rangdan foydalanish tavsiya etilmaydi. YAshil rangdagi sun'iy yoritkichlar buyumlarni och rangda ko'rsatgani bois ular oshxona va choy ichiladigan xonalarga qo'yilmaydi. YAshil rang sariq, qizil va pushti ranglar bilan ajoyib uyg'unlik hosil qiladi.

Bu ranglarni uyg'unlashtirish esa har qanday joyga salqinlik va musaffolik olib kiradi. Agar sizga tinchlik va osoyishtalik zarur bo'lsa, atrofingizni ko'proq yashil rang bilan boyitishga harakat qiling. YAshil va ozgina ko'k ranglarning omuxtaligi ish kabinetlari uchun mos tushadi. Qishloq uslubidagi intererni yaratish uchun zaytun yoki och yashil bilan jigarrang va qizil ranglarning uyg'unligidan foydalanilsa ayni muddao bo'ladi. Agarda uyga yorug'lik kam tushsa, siz yashil va oq ranglarni tanlashingiz mumkin. Bu ranglar uyni yorug' va shinam ko'rsatadi. Oldin ham aytib o'tilganidek to'q yashil dabdaba va hashamatli ko'rinish beruvchi xususiyatga ega. Zumrad-yashil rang och ko'k va sariq ranglar bilan ajib ko'rinish kasb etadi.

Har qanday intererni yaratishda sariq rangdan foydalanmaslikning iloji yo‘q. Negaki sariq xuddi quyosh nuri kabi ilqlik bagishlash xususiyatiga ega. Ranglar bilan davolashda sariqdan qizdiruvchi va rag‘batlantiruvchi vosita sifatida foydalaniladi. Sariq rang turli tushlarga ega.

Masalan, och sariq, qizg‘ish sariq va to‘q sariq ranglar kayfiyatni ko‘taradigan, e‘tiborli ko‘rinishga ega. Sariq rangni oq bilan uyg‘unlashtirish orqali tushkun kayfiyatni, lanjlikni davolash mumkin ekan. Sariq rang yashil bilan juda yaxshi munosabatga kirisha oladi va tabiat musaffoligini his qilish imkonini beradi. Ko‘k bilan birga ishlatilgan sariq yorqinlik effektini, qizil bilan esa kayfiyatni ko‘taradigan va dabdabali ko‘rinish beradi. Oltin rang va mis ranglardagi sariq tus barcha narsaga hashamat bag‘ishlaydi. Apelsin rang kuchli quvvat manbai bo‘lib, undan foydalanilganda issiq tropik iqlim effekti hosil bo‘ladi. Sariq ko‘k va oq ranglar bilan birgalikda O‘rtaer dengizi uslubini yaratadi, deb bejizga aytilmagan.

Oq rang — musaffolik, bokiralikni, pokizalik va osoyishtalik ramzi sanaladi. Oq va neytral

ranglar kartinalar, antikvar buyumlar uchun juda yaxshi fon bo‘la olishi bilan birga xonalarga shinam ko‘rinish beradi. Bu rang asosan pastak va to‘q ranglarga bo‘yalgan binolarni, xonalarni bo‘yashda qo‘llanilishi bilan ularni baland va yorqin ko‘rsatadi.

Ranglarning xususiyatlarini o‘rganish jarayonida ularning ta’sir kuchi haqida to‘xtalgandik. Ana shu jihatlarga asoslanib ranglarni asosiy va to‘ldiruvchi ranglarga ajratish mumkin. *Qizil, ko‘k va sariq* ranglar asosiy ranglarga kiradi. To‘ldiruvchi ranglarni *yashil, binafsha, zargaldok* kabi ranglar tashkil etadi. Asosiy va ikkilamchi ranglar bir-biri bilan qat’iy ketma-ketlikda munosabatga kirishadi va ranglar kamalagini hosil qiladi. Ranglarni bir-biri bilan moslashtirish ikki asosiy guruhga ajratiladi: nyuans va kontrast (qarama-qarshi) ranglar. Nyuans uslubida ranglar uyg‘unligiga katta ahamiyat berilsa, kontrast uslubda esa ikkinchi darajali ranglardan keng foydalaniladi.

Interer soʻzi fransuz tilidan kelib chiqib, “ichkari” degan maʼnoni bildiradi. Interer moddiy makon boʻlib, turgan holda umumiy prinsiplar bilan birga meʼmorchilik tarmoqlariga toʻgʻri keladigan farqlarga ham ega.

Toʻlaqonli meʼmoriy inshootni yaratishda, turar joy boʻlsin, jamoat yoki ishlab chiqarish binosi boʻlsin, intererining echimi, ichki makon muhitini yaratuvchi sifatida, butun binoning funksional va meʼmoriy kompozitsiya echimidan kelib chiqishi zarur.

Binoni meʼmoriy loyihalashni, butun inshootni umumiy gʻoyaviy mazmuniga taʼsir qiluvchi uning intererining echimidan ajratib boʻlmaydi. SHuning uchun meʼmoriy muhitni yaratish ichki makon muhitini taoʻkillashtiruvchi intererda faol namoyon boʻladi.

SHu sababli intererni yaratishda binoning tizimidan, funksional va hajmiy-fazoviy kompozitsiyasidan kelib chiqadi. Misol uchun: turar joy binolarining intereri kvartira rejasining tuzilishi va uning katta kichikligiga bogʻliq. SHu bilan birga kvartira rejasining oʻzi turar joy binosi turiga qarab aniqlanadi.


Interer inshootning har tomonlama kompozitsiyasini binolarni loyihalashda koʻproq mukammal ifodalanadi. Bunda hajmiy-fazoviy echim, funksiya, konstruksiya intererining fazoviy tizimini oldindan aniqlab beradi. SHu borada bir qatorda ichki fazoning kompozitsion gʻoyasi binoning umumiy kompozitsiyasiga jiddiy taʼsir koʻrsatadi.

Ichki fazo va uning intererda amaliy talablar bilan uzluksiz birgalikda estetik va maʼnaviy ehtiyojlar paydo boʻladi va rivojlanadi.

Oshxona interyerlari

Oshxonani rejalashtirishga mas'uliyat bilan murojaat qilish kerak. Kichik oshxona makonida ko'p funktsional xususiyatlarga ega bo'lish uchun har bir kichik narsani o'ylab ko'rish muhimdir. Buni imkon qadar xonani qulay va oson ishlatish bilan amalga oshirish kerak.

Ovqatlanish va ish joylarining malakali tashkiloti, shuningdek, maishiy texnika to'g'ri tanlash va oshxona vositasi - bu oshxona rejalashtirish dasturini amalga oshirishi mumkin.




Ba'zida rejalashtiruvchisizgina qilolmaysiz.


Dastur rejalashtiruvchisi bilan hech qachon uchrashmagan kishi, ehtimol, "Qanday dasturiy ta'minotni tanlash kerak?" Degan savolni so'rashi mumkin va u siz uchun belgilagan maqsadlar va maqsadlarga qarab tanlanadi.

Eng oddiy boshlang'ich dastur bir vazifada ishlashi mumkin, imkoniyatlarning to'plami cheklangan. Ko'p funktsional bir xil paketlar qo'shimcha variantlar mavjudligi sababli loyihaning istalgan bosqichida mijozning ehtiyojlarini qondira oladi

Dizayn bosqichlari:



Oshxona interyeri dizayni uchun maxsus ishlab chiqilgan ta'sirli funktsionalligi bilan kuchli to'liq pog'onali paket. Garniturani tuzishdan boshlab ko'plab zaruriy variantlarni o'z ichiga oladi. Oshxonaning barcha asosiy parametrlari o'rnatilgandan so'ng, dizayner sizga xona dizaynini va dizayni haqida qaror qabul qilish imkoniyatini beradi. Nihoyat, oshxona mebelini tanlashingiz mumkin.



HAYOTIY FAOLIYAT XAVFSIZLIGI QISMI

Diplom loyiha ishi “**Tayloq tumani turar joy binolari intererlarining dizayn echimi**” mavzusida bo‘lib, bino intererlarining dizayn echimi masalasi qarab chiqilgan.

Diplom loyiha ishida qurilish rejalashtirilgan binoning hozirgi zamon muhandislik talablaridan kelib chiqqan holda zilzilabardoshligini, yong‘inga xavfsizligini oshirish va yog‘in-sochinlardan muhofaza qilish qobiliyatini yaxshilash chora-tadbirlarini o‘rganib chiqilib, uning dizayn echimi ko‘rib chiqilgan.

Bino Samarqand viloyatining Tayloq tumanida qurilishi rejalashtirilgan bo‘lib, havo havzasiga nisbatan kam ifloslangan regionda joylashgan. Ushbu bino faoliyat kursatadigan xududning sharq tomonida jamoat binolari, shimol tomonida maishiy va oziq ovqat do‘koni binolari, g‘arb tomonida xiyobon va janub tomonida oziq ovqat do‘konlar binosi joylashgan.

Quyida korxona uchun me‘yoriy loyihani tayyorlashda ishlatilgan klimatik parametrlar keltirilgan.


Asosiy ko‘rsatgichlar	Belgilanishi	O‘lchov birligi	Qiymati
Atmosfera stratifikatsiyasiga bog‘liq bo‘lgan koeffitsient	A		200
Er relefinig koeffitsienti			1,0
Havrning o‘rtacha temperaturasi soat 13 da:			
Eng issiq oy uchun tashqaridagi havoning o‘rtacha maksimal harorati	T_i	$^{\circ}S$	+33,4
Eng sovuq oy uchun tashqaridagi havoning o‘rtacha maksimal harorati	T_s	$^{\circ}S$	- 3
SHamol tezligi, 5% takrorlanuvchanlikda aniq bo‘lgan	U^S	m/s	6
SHamolning o‘rtacha yillik tezligi	W_{sr}	m/s	2,0
SHamol yo‘nalishining o‘rtacha takrorlanuvchanligi	SH	%	3

Regionning o‘ziga xos meteorologik va klimatik xususiyatlariga ko‘ra, yil davomida atmosfera havosidagi zararli aralashmalarni tarqalib-yoyilib ketishini qiyinlashtiradigan sharoit kam kuzatiladi. Dizayn echimida xavoning isib ketishi.

Bitiruv malakaviy ishi (loyihasi)
“Landshaft dizayni va interyer” kafedrası

bet

havoning sovib ketishi, er rel'eflari, ya'ni binoning zilzilabardoshldigi, havoning tezligi va shamol yo'nalishi, quyoshning tushishi muhim o'rinng egallaydi.



SHuning uchun ham diplom loyiha ishining “Hayotiy faoliyat xavfsizligi” bo‘limida biz asosiy e’tiborni har qanday joyda ham, istalgan paytda ham sodir bo‘lish ehtimoli bo‘lgan zilzilaga va tez-tez yuz beradigan yong‘in, portlash, elektr xavfsizligi, gazdan zaharlanish, havo haroratining keskin sovub va isib ketishi, kuchli qor va yomg‘ir yog‘ishi, sanitariya-gigiena talablari hamda tizimlarining ishdan chiqishi, suv bosishi kabi ofatlarga qaratamiz.

YOng‘inlar

YOng‘in – insonlar hayoti va sog‘lig‘iga tahdid soluvchi, moddiy va madaniy boyliklarni yo‘q qiluvchi ofat, nazoratdan chiqib ketgan yonish jarayoni.

YOng‘in kelib chiqishi uchun quyidagi uch omilning bir vaqtning o‘zida bir joyda bo‘lishi etarlidir.

- YA’ni:
- yonuvchi moda (kog‘oz, yog‘och-taxta, neft va uning mahsulotlari);
 - yonish manbai (gugurt, uchqun, alanga);
 - oksidlovchi (kislород, havo);

YOnginning oldini olish uni o‘chirishdan ko‘ra osonroqdir. Quyida yong‘in havfi paydo bo‘lganda va yuz berganda aholining harakatlari qanday bo‘lishligi hakida fikr yuritamiz:

YOngingacha bo‘lgan harakat:

1.YOngin va gaz havfsizligi qoidalariga rioya qiling.

2.Engil alanga oluvchi moddalar va buyumlarni issiqliq manbai yonida saqlamang. YOng‘inlar kelib chiqishining sabablarini tahlili to‘g‘risidagi ma’lumot quyidagi jadvalda keltirilgan.

Jadval

T/r	YOng‘in keltirib chiqaruvchi sabablar	Ulushi, %
1	Olov yoki yong‘inga xavfli moddalar bilan e’tiborsiz munosabatda bo‘lishi	35 – 45
2	Elektr o‘tkazgichlari va qurilmalarining nosozligi	20 – 25
3	Gaz bilan isitish tizimlarining nosozligi	8 – 12
4	Bolalarning sho‘xligi-o‘yinqaroqligi	6 – 10
5	Ataylab o‘t qo‘yishlar	5 - 8
6	Injener-energetika tizimidagi buzilishlar	5 - 8
7	Boshqa turdagi	5 – 10

YOng‘inlarni tez, keng tarqalib ketishining asosiy sabablari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- inshootlar loyihasini ishlab chiqishda yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklar;
- inshootlar qurilishida Qurilish me’yorlari va qoidalari hamda davlat standartiga rioya qilmaslik;
- yong‘in nazorati, gazdan foydalanishni nazorat qilish xodimlari tomonidan ko‘rsatilgan, yong‘inning oldini olish tadbirlarining bajarilmasligi;
- fuqarolarning yong‘in sodir bo‘lganda o‘z vazifalarini bilmasliklari va vahimaga tushib qolishlari;
- bolalarning yong‘in chiqishiga olib keluvchi uyinlariga kattalarning beparvolik bilan qarashi;
- yong‘inga qarshi kurashda qo‘llaniladigan o‘chirish va qutqarish vositalarining etishmasligi.

YOng‘inning oldini olish chora-tadbirlariga quyidagilar kiradi:

Bitiruv malakaviy ishi (loyihasi)
“Landshaft dizayni va interyer” kafedrası

bet

- yong'in va portlashga xavfli bo'lgan barcha ob'ektlarni inventarizatsiyalash (korxona yoki muassasaga qarashli mol-mulkni hisobga olish, ro'yxat qilish), pasportlashtirish va deklaratsiyalashtirish (kerakli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan rasmiy hujjat tuzish);

- tashkilot va muassasalarda doimiy ravishda davlat maxsus tekshiruv idoralari tomonidan yong'in va portlashning oldini olish bo'yicha tekshiruvlar o'tkazish, yong'in chiqishi va portlashlarga sabab bo'luvchi kamchiliklarni aniqlash, zudlik bilan bartaraf etish va ularga yo'l qo'ymaslik;

- Qurilish me'yorlari va qoidalari, davlat standartlariga doir maxsus buyruqlarni so'zsiz bajarish;

- yong'indan muhofaza qiluvchi idoralarning xodimlari bergan ko'rsatmalarni bajarish, eng asosiysi yong'inga olib keluvchi vaziyatlarni maxsus kuchlar tomonidan birinchi navbatda bartaraf etish bo'yicha qilinadigan ishlarni bajarish;

- yong'inni bartaraf etish chora-tadbirlarini bilish, qolaversa yong'inni o'chirish uchun birinchi daqiqada bir piyola, ikkinchi daqiqada bir chelak suv etarli bo'lishini, uchinchi daqiqada esa bir sisterna suv ham etmay qolishi mumkinligini yodda tutish;

- aholining barcha tabaqasini muntazam ravishda yong'inning oldini olish chora-tadbirlarini bajarish bo'yicha o'rgatib borish.

YOng'inga qarshi kurashda va uni bartaraf etishda quyidagi qoidalarga amal qilish katta samara beradi:

- yong'in keng tus olib ketmasligi uchun yonayotgan joyning tevarak-atrofini suv va boshqa yonmaydigan qorishmalar hamda moddalar bilan sovitib, yonishiga yo'l kuymaslik;

- yonayotgan hududni ko'pik, kukun, qum, qalin mato va havo o'tkazmaydigan boshqa narsalar bilan ajratib, yakkalab quyish;

- yon-atrofdagi barcha tez yonuvchi jihozlarga, inshootlarga maxsus ko'pik-kukunli, ishqorli suv sepish;

- yonish reaksiyasini kimyoviy yo'l bilan sekinlashtirish.

YOng'in o'choqlarining paydo bo'lishi va yong'inning rivojlanishi bino-inshootlarning o't (olov)ga chidamlilik darajasi va ishlab chiqarish jarayonlarining yong'inga havfliligidan ham

bog‘liq bo‘ladi.

Barcha qurilish materiallari o‘tga chidamliligi jihatidan uch toifaga bo‘linadi:

- **yonmaydigan** – beton, pishiq gisht, marmar kabilar olovning ta’sirida yoki yuqori haroratda yonmaydi, tutamaydi va erimaydi;

- **kiyin yonuvchan** – bu materiallar yuqori harorat ta’sirida qiyinchilik bilan uchqunlanadi, tutaydi va ko‘mirlanadi hamda olov manbai bo‘lgandagina yonishda davom etadi. Bularga DVP, DSP va boshqalar kiradi;

-**yonadigan** – bularga yog‘och materiallari, sellyuloza, plastmassa, tol kog‘oz, bitumlar kiradi.

Bino va inshootlar o‘tga chidamliligi jihatidan besh darajaga bo‘linadi:

Jadval

O‘tga chidamlilik darajasi	Bino va inshootlarning qismlari			
	Zinalar	Zina va zina maydonlari	Qoplama tuzilishlari	Qoplama qismlari
I	3soat yonmaydigan	1soat yonmaydigan	1soat yonmaydigan	0,5soat yonmaydigan
II	2,5soat yonmaydigan	1soat yonmaydigan	0,25soat yonmaydigan	0,25soat yonmaydigan
III	2soat yonmaydigan	1soat yonmaydigan	0,25soat yonmaydigan	yonadigan
IV	0,5soat kiyin yonadigan	0,25soat kiyin yonadigan	0,25soat kiyin yonadigan	yonadigan
V	Y O n a d i g a n			

Amaldagi tartib va qoidalarga ko‘ra yonadigan va engil yonadigan qurilish materiallarining jamoat joylarida, bolalar muassasalari va shifoxonalarda ishlatilishi qat’iyan man etiladi.

O‘tni o‘chirishni dastlabki uskunalari.

Bitiruv malakaviy ishi (loyihasi)
“Landshaft dizayni va interyer” kafedrası

bet

O'tni o'chirish uskunalari: qo'lda ishlatiladigan birlamchi vositalar; bir joyda muqim o'rnatiladigan va mexaniq yoki avtomatik harakatga keltiriladigan uskunalar; harxil masofadagi hududlarda harakatlanaoladigan ko'chma uskunalar va boshqalarga bo'linadi.

